

**Erasmus+ dasturi**

Erasmus+ bu ta'lim, professional ta'limni taraqqiy ettirish, yoshlarni kamolotga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo'yicha loyihalar, hamkorliklar, tadbirlar mobilliklarni qo'llab-quvvatlovchi Yevropa Ittifoqining dasturidir. 2014-2020 yillar uchun mo'ljallangan ushbu dastur, yuqorida keltirilgan sohalar bo'yicha Yevropa Ittifoqi davlatlari va hamkor-davlatlar bilan hamkorliklarini rivojlantirish maqsadida moliyalashtiriladi.

Quyidagi dastur yo'nalishlarida OTMLar uchun katta jamoa bo'lib va individual tarzda ishtirok etishlari mumkin: Oliy ta'limda salohiyatni oshirish (CBHE), Xalqaro kredit mobilligi (ICM), Erasmus Mundus Qo'shma magisterlik darajalari (EMJMD), Jean Monnet dasturi (JM).

Erasmus+ haftaligi davomida **turli maqsadli guruhlar uchun bir qator tadbirlar** doirasida Yevropa universitetlari bilan hamkorlik qilish va qisqa muddatli individual mobillik uchun grantlar yutib olish, shuningdek magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun mavjud stipendiyalar haqida to'liq ma'lumotlar taqdim etish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro kredit mobilligi talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va o'qituvchilarning xalqaro almashinuvini qo'llab-quvvatlaydi hamda universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. OTMLar talabalar, o'qituvchilari va xodimlari ushbu yo'nalish bo'yicha savollari bilan o'z oliy ta'lim muassasalaridagi xalqaro aloqalar bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

Erasmus Mundus qo'shma magisterlik dasturlari (EMJMD) ta'lim olish/berish va/yoki ilmiy tadqiqot olib borish uchun stipendiyalar takif qiladi. Dastur mazmuni, o'quv uslublari, xujjat topshirish va tanlov jarayoni haqidagi batafsil ma'lumotni sizni qiziqtirgan qo'shma magistrlik loyihasi web-saytida tanishishingiz mumkin. Joriy yildan boshlab, Kredit mobilligi yo'nalishi bo'yicha amaliyot o'tash yangi imkoniyat paydo bo'ldi.

**Erasmus+ dasturining O'zbekistondagi faoliyati**

Hozirgi kunda jami 22 ta Erasmus+ Oliy ta'limda salohiyatni oshirish (CBHE) loyihalarida 41 ta oliy ta'lim muassasari, jumladan Toshkent shahridagi 17 ta OTM va respublikaning 11 ta viloyati va Qoraqalpog'istondan 24 OTM ishtirok etmoqda.

Ayni vaqtda, xalqaro kredit mobilligi loyihalar soni 185taga yetdi, loyihalar doirasida 1250 kishining mobilligi, ya'ni 862 professor-o'qituvchi va talabalar uchun grantlar asosida Yevropa universitetlarida ta'lim olishga yo'naltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston OTMLariga Yevropa universitetlaridan 388 nafar vakillarning mobilligi rejalashtirilgan.

**Erasmus+ haftaligi vazifalari**

- Yevropa universitetlari bilan O'zbekiston oliy ta'lim muassasari o'rtasida hamkorlik qilish uchun mavjud barcha imkoniyatlar haqida ma'lumot berish
- Yevropa hamkor universitetida qisqa muddatli ta'lim olish, doktorantura va magistraturada to'liq ta'lim va diplom olish, OTM professor-o'qituvchilar uchun dars berish va ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha mavjud imkoniyatlar haqidagi to'liq ma'lumotlar berish
- Erasmus Mundus dasturi bitiruvchilarining xalqaro ta'lim tajribalari bilan tanishtirish
- Ma'lumot izlash, ta'lim olish uchun talabnomalarni tayyorlash va topshirish bo'yicha amaliy maslahat va tavsiyalar taqdim qilish
- OTMLar ishlanmalarining tijoratlashtirish bo'yicha chet el tajribasi, OTMLarda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilish, tadbirkorlik malakalarni OTMLarda rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish

**Ishtirokchilar**

**Ishtirokchilar:** Oliy ta'lim muassasalar professor-o'qituvchilari, amdinistrativ xodimlar, talabalar va doktorantlar

**Tashkilotchilar**

O'zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi Delegatsiyasi, Oliy ta'lim sohasi bo'yicha ekspertlar Milliy guruhi, Toshkent arxitektura va qurilish instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkentdagi Xalqaro Westminster universiteti, Yodhu texnika instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Nukusdagi Toshkent davlat agrar universitetining filiali, Nukusdagi Toshkent davlat san'at va madaniyat institutining filiali